

BOTANIK TERMINLARNING ELEKTRON LUG'ATLARDA SEMANTIZATSİYALANISH HOLATI

Bahriiddinova Yulduzxon Bahriiddin qizi, Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant

THE STATUS OF SEMANTISATION OF BOTANICAL TERMS IN ELECTRONIC DICTIONARIES

Bahriiddinova Yulduzkhon Bahriiddin kizi, Termez State University, basic doctoral student

СОСТОЯНИЕ СЕМАНТИЗАЦИИ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЯХ

Бахриидинова Юлдузхон Бахрииддин кызы, Термезский государственный университет, базовый докторант

Annotatsiya: Ushbu maqolada botanik terminlarning elektron lug'atlardagi semantizatsiyalanish jarayoni va holati o'r ganiladi. Xususan, ingliz tilidagi bir nechta elektron lug'atlarda botanik terminlarning semantizatsiyalanish holatining bir biriga o'xshash va farqli jihatlari taqqoslanadi. Tadqiqot natijalari elektron botanik lug'atlar ishlab chiqishda lingvistik va amaliy jihatdan muhim tavsiyalarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: botanik terminlar, semantizatsiya, semantizatsiyalash vositalari, elektron lug'atlar, termin ekvivalenti, terminologik ta'rif, verbal va noverbal izoh.

Abstract: This article examines the process and state of semantization of botanical terms in electronic dictionaries. Specifically, it compares the similarities and differences in the semantization of botanical terms across several English electronic dictionaries. The research findings provide important linguistic and practical recommendations for the development of electronic botanical dictionaries.

Keywords: botanical terms, semantization, means of semantization, electronic dictionaries, term equivalent, terminological definition, verbal and non-verbal explanation.

Аннотация: В данной статье изучается процесс и состояние семантизации ботанических терминов в электронных словарях. В частности, сравниваются сходства и различия в состоянии семантизации ботанических терминов в нескольких англоязычных электронных словарях. Результаты исследования предоставляют важные лингвистические и практические рекомендации для разработки электронных ботанических словарей.

Ключевые слова: ботанические термины, семантизация, средства семантизации, электронные словари, эквивалент термина, терминологическое определение, вербальное и невербальное пояснение.

KIRISH. Leksikografiyada har qanday turdag'i lug'at tarkibiga kirgan leksik birliliklarni izohlash uchun o'zining tavsifiy vositalaridan foydalanadi. Rus tilshunosi Morkovkining fikricha tasniflash vositalarini lug'at tuzuvchi yaratayotgan lug'atining turi, maqsad va vazifasiga ko'ra belgilashi tufayli bu jarayonda barcha lug'atlar uchun bir xil amal qiladigan, umumiy qabul qilingan ma'lum bir universal tasnif majmui mavjud emas. Bu esa leksik birliliklarning semantizatsiyalanish hodisasini belgilaydi. Semantizatsiya – bu keng ma'noda foydalanuvchilarning shu so'zdan nutqida to'g'ri qo'llashi uchun so'zning semantik tuzilishi hamda ma'nosini ochib berish demakdir [1, 166].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tilshunos Tabanakovning fikriga ko'ra agar semantizatsiyani tor ma'noda, ya'ni leksikografik jihatdan tahlilini ko'rsak, lug'atda so'zning ma'nosini ochib beruvchi har qanday tavsifiy usullarni tushunishimiz kerak [2, 167]. U

0009-0006-7576-5974

el.pochta:

yulduz.bahriiddinqizi@gmail.com

terminlarning semantizatsiya holatini "Multitran" elektron lug'atini tahlil qilish orqali ochib bergan. Unga ko'ra, terminning semantikasi ikki xil ta'rif bilan ochib beriladi: 1) qiyoslanayotgan tillardagi jins hamda tur nomining ta'rifi; 2) terminning tarjimasi yoki terminologik ibora ko'rinishidagi qisqa ta'rifi. Lug'at maqolasida keltirilgan ruscha hamda inglizcha havolalar tizimi esa termin haqidagi ta'rif, tarjima va uning boshqa xususiyatlarini aniqlashga ma'lum bir tizimli yo'l vositasini bajaradi [3, 78-88]. Belarus tilshunosi A.V.Ermalovich semantizatsiya so'zning barcha ichki va tashqi mazmunini aks ettiruvchi jarayon deb fikr bildirgan [4, 17]. A.A. Gulezovaning fikricha, yangi terminlar bilan tanishish bosqichining eng muhim muammosi semantizatsiya hisoblanib, u terminlarning denotativ hamda konnotativ munosabatlarini tushuntiradi, qolaversa, semantizatsiya - bu til birligining ma'nosi, tarkibiy qismi to'g'risida kerakli ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish jarayoni hisoblanadi [5, 164-169]. O'zbek tilshunoslaridan G'.G'.Abduvaxobov shuni ta'kidlaydi, an'anaviy lug'atlardan farqli o'laroq, elektron lug'atlarda so'zlarni nafaqat alifbo tartibida, so'z va iboralarni tabaqlashtirilgan iyerarxik tartibda sanab o'tish, ularni misollar bilan tushuntirish, keng lug'at yozuvlari, eng so'nggi multimedia vositalari bilan zamon talablari asosida taqdim etilishi kerak, ya'ni so'zlarning elektron lug'atlarda ifodalanishi rangli, obrazli, grafik, tovushli va videotasvirlar shaklida bo'lishi mumkin. Qolaversa, elektron lug'atlarda so'zlarning izohi til me'yorlariga muvofiq berilishi hamda so'zning ma'nosini ochib berishda matn tarkibidagi situatsion ma'nolar, omonimlar, sinonim va antonimlar, frazeologik birikmalardan foydalanish zarur. Qo'shimcha sifatida, elektron lug'atlarda ko'p tillilik funksiyasini ham rivojlantirib, so'z va matnlarni turli tillarga qisqa vaqtning ichida tarjima qilish imkoniyatini ham qo'shish shart [6, 49].

MUHOKAMA. So'z yoki terminning semantikasi haqida gap borar ekan, lug'atdan foydalanuvchi har qanday shaxs, xoh u tarjimon, xoh talaba yoki qaysidir soha mutaxassis bo'lsin, albatta shu terminning izohi yoki tarjimasidan tashqari bo'lgan ma'nosi, etimologiyasi, sinonim – antonimlik holati, matnda qo'llanilish holati haqidagi ma'lumotlarga ham qiziqish bildiradi. Qozoq tilshunosi A.M.Ahmetbekova esa terminlarning lug'atlarda semantizatsiyalashning

mikrostrukturasini: 1) lemma (termin); 2) termin talaffuzi (pronunciation); 3) grammatik ma'lumot (grammatical information); 4) termin tahlili (term analysis); 4) terminning boshqa tillardagi ekvivalentlari (equivalents of term); 6) termin ifodalagan ma'noning izohi (explanation of meaning); 7) termin ishtirok etgan so'z birikmalar (collocations); 8) termin ishtirok etgan matnlardan misollar (examples) 9) terminni uchratish mumkin bo'lgan boshqa qo'shimcha ma'lumotlarga havolalar (cross-references) kabi tarkibdan iborat deb hisoblaydi [7, 491-495].

Polyak tilshunosi Robert Lyov elektron lug'atlarda so'zlarning semantizasiyasini ifodalashda quyidagi vositalardan foydalanish o'rini deb fikr bildirgan hamda o'z tadqiqotlarida misollar asosida izohlagan. Ular quyidagilar:

- so'zning yozma izohi (verbal mode) – lug'at tarkibiga kiritilgan so'zlarning semantik ma'nosi hamda bu ma'noni ochib berish uchun ham bir qancha lingvistik vositalardan, ya'ni izoh (*definition*), so'zning ekvivalenti, so'z ishtirok etgan biror jumla yoki kichik matn beriladi.

- so'zga berilgan izohning ovozli varianti (audio presentation mode) – bu nafaqat so'zning talaffuz audiosi, balki izoh, ekvivalent hamda so'z ishtirok etgan matn yoki jumlaning ham lug'at yaratilgan tildagi ovozli variantining taqdim etilishi elektron lug'atlarning foydalanuvchilarga taklif qiladigan avzalliklaridan biridir. Bu orqali ular so'zni nafaqat o'qish orqali tushunadi, balki uning talaffuzi va izohini urg'u, intonatsiya, ritm bilan o'qilgan ovozli varianti orqali uni tushunish hamda eslab qolishi mumkin.

- so'zning yozma bo'lmagan izohi (non-verbal mode) – ushbu vositalar lingvistik bo'lmagan tovushlarning audiolari (hayvonlar, qushlar, tabiat hodisalari musiqa asboblari kabilarning tovushlari), tasviriy fotosuratlar illustratsiyasi (so'zlarning faqat rasmi beriladigan lug'atlar), animatsiya va videokliplarni qamrab oladi [8, 290-306].

NATIJALAR. Botanik terminni semantizatsiya qilish jarayonida har bir lug'at o'z yondashuviga ega, bu esa avval ta'kidlaganimizdek, har qanday elektron lug'atning tuzilishini uni yaratgan muallif yoki mas'ul tashkilot belgilagan. Sababi, bitta terminning semantizasiyasini ifodalashda ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarning mayjudligidadir. Bu jihatlarning tahlilini quyida keltirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Elektron lug‘atlarda ingliz tilidagi botanik terminlarning semantizatsiyalanishidagi o‘xshash (+) va farqli (-) jihatlar

Semantizatsiyalash vositalari	Elektron lug‘atlar			
	Cambridge Online Dictionary	Merriam Webster Online Dictionary	Oxford Dictionary English	Longman Dictionary English
termin	+	+	+	+
termin talaffuzi va transkripsiysi	+	+	+	+
grammatik ma’lumot	+	+	+	+
termin ifodalagan ma’noning izohi	+	+	+	+
terminning boshqa tillardagi ekvivalentlari	+	-	-	-
termin ishtirok etgan so‘z birikmalar	+	+	-	-
termin ishtirok etgan matnlardan misollar	+	+	-	+
terminni uchratish mumkin bo‘lgan boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlarga havolalar	+	+	-	-
illustratsion rasmlar	+	-	+	-
terminning ko‘chma ma’noda qo’llanilishi	+	+	+	-
semantizatsiya vositalarining zonalarga ajratilishi	-	+	-	-

Berilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Kembrij elektron lug‘atida botanik terminlarni semantizatsiyalash holati qolgan lug‘atlarga nisbatan kengroq hamda ma’lumotlar izchillik bilan yoritilgan. Shunga qaramay, ushbu lug‘atda ma’lumotlar maxsus zonalarga ajratilmaganligi bilan Merriyam Webster lug‘ati bilan deyarli bir xil funksiyalarga egaligini ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki tahlilga olingan har to‘rtta lug‘atdan faqat Webster elektron lug‘atigina zonalar funksiyasiga ega, bu esa foydalanuvchilarga o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni tez va oson topishga imkoniyat bergenligi bois, lug‘atning boshqa lug‘atlardan ustunlik tarafini ochib beradi.

XULOSA. Elektron lug‘atlarda botanika terminlarining semantik holatini taqdim etish aniq, tizimli va foydalanuvchiga qulay shaklda bo‘lishini talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron lug‘atlarda botanika terminlarining leksik ma’nolari,

ularning kontekstual qo’llanilishi, sinonimik va antonimik munosabatlari, shuningdek vizual tasvirlar bilan mustahkamlanishi muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o‘zbek tillari orasidagi tarjima jarayonida ko‘p ma’noli birliklar, xalqaro nomenklaturaning ta’siri va ekvivalentlarni tanlashdagi qiyinchiliklar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun lingvistik va kompyuter texnologiyalariga asoslangan yondashuvlardan foydalanish zarur. Tadqiqot natijalari botanika terminlarini elektron lug‘atlarga samarali integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Морковкин В.В. Опыт идеографического описания лексики. –М.: МГУ, 1977. – с. 166.

2. Табанакова В.Д. Семантизация термина в одноязычных терминологических словарях: дис...канд. фил. наук. – Л: ЛГУ, 1981. -с 167.
3. Табанакова В. Д. Словарь “Мультитран” как свернутая функциональная модель семантики, синтаксики и pragmatики термина. Вестник Тюменского государственного университета. Гуманитарные исследования. Humanitates. 2015. Том 1. № 2(2). – СС. 78-88
4. Ермалович А.В. Семантизация речевых единиц при обучении русскому языку как иностранному. “Технологии обучения русскому языку как иностранному и диагностика речевого развития” Материалы XX Международной научно-практической конференции. - Минск, 2019. – с. 17.
5. Гулезова А. А. Словообразовательный анализ как один из способов семантизации экономических терминов в обучении профессионально ориентированному французскому языку. УДК 811.133.1'243. 2021. – СС. 164-169.
6. Abduvaxobov G. Amaliy Tilshunoslik: Elektron lug‘atlar yaratish konsepsiysi. Farg‘ona Davlat Universiteti, 2023, 28(1), - б. 49.
7. Akhmetbekova A. M. Microstructure features of dictionaries of linguistic terms. Life Science Journal 2014;11(6). – pp. 491-495.
8. Lew R. Multimodal lexicography: The representation of meaning in electronic dictionaries. Lexikos, 20 (AFRILEX-reeks/series 20: 2010): - PP. 290-306.

